

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

*Djumanova Ma’rifat Mamatqulovna*

*Forish tuman kasb hunar maktabi*

*Tarix fani o’qituvchisi*



**Annotatsiya:** ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviy-madaniy hayot va rivojlanishyo‘llari xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, madaniyat, tarix, din, ta’lim.

**Аннотация:** В данной статье даны размышления о путях духовно-культурной жизни и развития Узбекистана в годы независимости.

**Ключевые слова:** духовность, культура, история, религия, образование.

**Abstract:** this article provides ideas about spiritual and cultural life and ways of development in Uzbekistan during the years of independence.

**Key words:** spirituality, culture, history, religion, education.

### KIRISH

Jamiyat ma’naviyatiga madaniyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o‘z ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg‘otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi. Shuning uchun ham jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi, deb belgilandi.

Tarixdan ma’lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo‘lgan, qaramlik va zulmostida qolgan. Buning oqibatida, xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odatlarini qadrsizlanishga mahkum bo‘lgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma’naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko‘plab masjid-u madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab mamlakatimizda boy ma’naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyat ma’naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta’minlovchi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning yo‘nalishlari belgilab olindi

“Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar – o‘z yo‘liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta’minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma’naviy islohotlar – qullik

va mutelik iskanjasidan ozod bo‘lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q bu dunyoda”.

### ASOSIY QISM

Mustaqilik yillarida boy ma’naviy merosimizni tiklash tadbirlari amalga oshirildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shgan bobolarimiz – Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xora z miy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko‘plab ajdodlarimizning milliy va ma’naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo‘yicha nishonlandi, ruhlari shod etildi, asarlari nashr etildi. Ularning ma’naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma’naviy kuch-qudrat bag‘ishlamoqda, jamiya timizni ma’naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

#### Tarixiy xotiraning tiklanishi

Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy-axloqiy qadriyatlar hamda an’analar va muqaddas dinimizning o‘rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o‘z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma’naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu bois, mustabid tuzum davrida xalqimizning soxtalashtirilgan tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o‘quv maskanlarida Vatan tarixini o‘qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari birinchi Prezident I.A. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo‘lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida belgilab berildi. Birinchi Prezident farmoni bilan 1996-yil «Amir Temur» yili, deb e‘lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan tadbirlar O‘zbekistonda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakat Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. UNESCO qarori bilan Sohibqiron yubileyi jahon miqyosida nishonlandi.

Parijda Amir Temurga bag‘ishlangan madaniyat haftaligi, «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuyida xalqaro konferensiya va ko‘rgazmalar bo‘lib o‘tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal qo‘yildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog‘liq tarixiy yodgorliklar ta‘mirlandi. 1999-yilda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Mangu berdi tavalludining 800 yilligi, o‘zbek xalqi dahosi yaratgan Alpomish dostonining 1000 yilligining nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g‘ururni ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan

Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi hurmati o‘z joyiga qo‘yildi, asarlari chop etildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000-yilda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi, 2002-yilda «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi, xalqimiz ning fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1999-yilda Toshkentda «Xotira maydoni» majmuasi barpo etildi. Har yili 9-may kuni mamlakatimizda «Xotira va qadrlash kuni» sifatida nishonlanmoqda. 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi va Shahri sabz shahrining 2700 yilligi, 2006-yilda Qarshi (Naxshab) shahrining 2700 yilligi, 2007-yilda Samarqand shahrining 2750 yil ligi va Marg‘ilon shahri ning 2000 yilligi, 2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlandi. Bu tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotira ning tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqloq g‘oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

#### Diniy va milliy qadryatlarning tiklanishi

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar tiklandi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro‘z qayta tiklandi. Musulmonlar O‘zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Birinchi Prezident Farmoni asosida tashkil etilgan «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy ravnaqi yo‘lida xizmat qilmoqda.

O‘zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan, mustamlakachilik davrida oyoq-osti qilingan urf-odatlar va an‘analari, madaniy qadriyatlari ehtiyotlab tiklandi va yangi ma’no-mazmun bilan boyitildi. Maqomchilar, to‘y-marosim qo‘shiqlari, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarining o‘nlab ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Pianinochi va skripkachilarning simfonik va kamer musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlari bo‘lib o‘tmoqda. Mamlakatimizda o‘zbek tilining xalq va davlat turmushidagi o‘rni va ahamiyati qayta tiklandi. Davlat tili haqidagi qonunda o‘zbek tili o‘zbek xalqining ma’naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo‘llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta’minlanishi belgilab qo‘yildi. Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish yuritish asosan, o‘zbek tilida olib borilmoqda. Respublikamizning ma’muriy-hududiy birliklari, ko‘chalari, geografik o‘rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o‘zbek tilida yozib qo‘yildi. Natijada o‘zbek xalqining milliy qadr-qimmatini qayta tiklandi va mustahkam landi. Shuningdek, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmatini ham o‘z o‘rniga qo‘yilgan.

## XULOSA

Ma'naviv-ma'rifiv sohadagi yutuqlarimiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent Islom universiteti, Navoiy tog'-konchilik instituti, Toshkent Moliya instituti va boshqalar tashkil etildi.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yana-da takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi da'vatkor nutqi ham ana shundan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar,

jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Yangi O‘zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘” degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan zamondir. Yangi-yangi uyjoylar, zamonaviy korxonalar, ta’lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, obod qishloq va shaharlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo‘shayotgan tarixiy bir davrdir. Yangi O‘zbekiston – “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari

xalqqa xizmat qilishi kerak” degan hal qiluvchi tamoyil amalda o‘z tasdig‘ini topayotgan mamlakat.

Donishmand xalqimizning o‘zi bu kabi urinishlarga qat’iy javob bermoqda.

Yangi O‘zbekiston bunday kimsalar o‘ylagan yo‘ldan bormaydi, islohotlar jarayoni

ortga qaytmaydi. “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish” g‘oyasi ham tasodifan va quruq yerda paydo bo‘lmagan, albatta. Yurtimizning nihoyatda boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga egaligi bu boradagi hayotbaxsh rejalarga asos berayotgani shubhasiz.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari.- Farg‘ona, 1998 y.
2. Axmedova E., Gabibulin R. Kulturalogiya. T., Izd-voAx., 2001.
3. Abdullaev M., Umarov E., Ochildiev A., Madaniyatshunoslik asoslari. - Toshkent.: Turon-iqbol, 2006 y.
4. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. Universitet, Toshkent.: - 2011y.
5. Boboev.X., Alimasov V. Madaniyatshunoslik “Ma’ruzalar matni” T., 2001.
6. Sulaymonova F. Sharq va g`arb. T., “Uzbekiston”, 1997.
7. Bekmurodov M, Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi. Toshkent.: Yangi asr avlodi. -2010 y.
8. Madaniyat va ma’naviyat muammolari.-Toshkent.: Meros, 1994 y.
9. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o`zgarishlari. Toshkent.: 2004 y.
10. Ochildiev A. Madaniyat falsafasi. -Toshkent.: Muxarrir, 2010y.
11. Q.usmonov, M. Sodiqov S.Burxonova. O`zbekiston tarixi. Toshkent«IQTISOD-MOLIYA» 2016